

**BUXORO VILOYATINING GEMORFOLOGIYASI, TUPROQ HOSIL  
QILUVCHI JINSLARI VA SIZOT SUVLARI HAQIDA  
ILMIY ASOSLAR**

**Ilmiy rahbar:** q.x.f.f.d., dotsent v.b. **Xamrayev K. Sh**

Gidromelioratsiya tizimlaridan foydalanish mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

**Olimova G. J**

***Annotatsiya:** Buxoro viloyat tuproqlarining mexanik tarkibi har xil bo'lib, tuproq turlari bo'yicha 36,2-74,0% i o'rta mexanik tarkibli (asosan Buxoro, Peshku, Romiton, G'ijduvon, Qorovulbozor tumanlari). Mexanik tarkibi og'ir tuproqlar nisbatan ko'proq Kogon va Vobkent tumanlarida, yengil mexanik tarkibli tuproqlar esa Shofirkon, Jondor va Qorako'l tumanlarida tarqalgan. Viloyat tuproqlari yaxshi suv-fizik xossalarga ega bo'lib, qishloq xo'jalik ekinlariga mexanik ishlov berish, suv o'tkazuvchanligi, namlikni saqlash xususiyatlari juda qulaydir.*

***Kalit so'zlar:** allyuvial, geomorfologiya, sizot suvlar, gidromelioratsiya, xo'jalik ekinlar, texnik ekinlar, namlik, xlorid-sulfat, kimyoviy elementlar, fizik xossalari, kaliy o'g'itlar.*

Sug'oriladigan tuproqlarni harakatchan fosfor bilan ta'minlanganlik darajasi bo'yicha 5,7% maydon juda kuchsiz, 39,5% o'rtacha, 3,4% yuqori va 0,5% maydon juda yuqori ta'minlangan.

Harakatchan kaliy bo'yicha esa 1,1% maydon juda kuchsiz, 49,2 % kuchsiz, 40,2% o'rtacha, 8,6% kuchli va 0,9% maydon yuqori ta'minlangan. Ushbu ma'lumotlardan ma'lumki sug'oriladigan yerlarda yetishtiriladigan barcha qishloq xo'jaligi ekinlaridan mo'l, sifatli va kafolatlangan xosil olish uchun mineral o'g'itlardan maksimal darajada foydalanish talab qilinadi.

Viloyat hududi murakkab geologik , geomorfologik –litologik ,tuproq-iqlim sharoitlari regionda o‘ta murakkab gidrogeologik holatni keltirib chiqargan, bu holat yer usti va yer osti suvlari rejimi hamda balansi ko‘rsatkichlarida o‘z aksini topgan. Hududda gidrografik tarmoqlar nihoyatda notekis taqsimlangan.

Viloyat tabiiy va suniy kam zourlashgan tekislik qismi asosiy maydonlarida yerlarning yer yuqori meyorlarda sug‘orish va boshqa bir qator omillar gurunt suvlarining yer yuzasiga meyorlarda sug‘orish va boshqa bir qator omillar gurunt suvlarinig yer yuzasiga ko‘tarilishiga imkon yaratmoqda, bu holat , o‘z navbatda , tuproqda tuz to‘planishi va qayta sho‘rlanish jarayonlarini keltirib chiqarmoqda. Yer osti suvlari sathining davriy ravishda tebranib turishi yil fasllari bo‘yicha o‘zgarib, hududlarda murakkab gidrgeologik jarayoni keltirib chiqaradi. Viloyatning shimoliy hududlarida murakkab gidrogeologik jarayonni keltirib chiarmoqda. Viloyatning shimoliy hududlarida yer osti suvlarining sathi 2-3 m va undan ortiq chuqurlikda kuzatilsa, tekislik qismining asosiy maydonlarida 1,5-2,0 m atrofida kuzatiladi va Zarafshon daryosining 1-qayir usti terrasasida 0,5-1,0 m ni tashkil etadi. Ayniqsa , tekislikning botiq , pastkamlik yerlarida yer osti suvlari oqimi deyarli taminlanganligi natijasida suvda oson eruvchi tuzlar miqdori ortib, tuproqlar va gurt suvlaridagi dastlabki xlorid-sulfatli sho‘rlanish tipi xloridli sho‘rlanish tipiga aylanib bormoqda.

Gurunt suvlarining mineralizatsiya darajasi turli qismlarida turlicha ko‘rsatkichlarda , shimoliy tekisliklarda 1-2 g/l atrofida kuzatilsa , hududning o‘rta qismlarida 2-3 g/l , quyi pastkam yerlarida 3-5 g/l va undan ortiq miqdorini tashkil etadi. Jumladan , hudud yerlarida gurunt suvlarining o‘rtacha minerallashgan darajasi 1,5-2 g/l ko‘rsatkichiga teng.

Sug‘oriladigan yerlarda gurunt suvlarining yer yuzasiga yaqinlashishi natijasida evolyusion tarzda gidromorf ( o‘tloqi) tuproqlar maydoni kengayib, sho‘rlanish jarayonlarni to‘xtatish muammosi asosiy dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Viloyat hududi geologik davrlarda yotqizilgan turli jinslardan iborat bo‘lib , tuproq hosil qiluvchi ona jinslari kam ( kuchsiz) allivial jinslardan tashkil topgan. Hududning asosiy qismi tuproq hosil qiluvchi ona jinslar usti loyli, qumloq va qumli

qatlamlari bo'lgan qumoqlar allyuvial yotqiziqqlarning qum aralashgan qatlamlari yotadi.

Buxoro viloyati hududi geologik nuqtai nazardan egarsimon (mulda) struktura va qalinligi 400 metrga teng bo'lgan kontinental yotqiziqqlar bilan shakllangan. Ular hamma yerda keng tarqalgan paleogen davrning dengiz gillari ustida yotadi.

Buxoro viloyati gidrogeologik sharoitlari-Karmina-Konimex vohasi sizot suvlari allyuvial va allyuvial-prolyuvial, shag'al-qum-gilli tuproq qatlamlarida sekin xarakat qiladigan yer osti sizot suvlari oqimlaridan iborat. Sizot suvlari chuqurligi 1,5-3,0 m. Oqim yo'nalishi shimoliy-g'arbga tomon bo'lib, nishabligi 0,001-0,004 gradusni tashkil etadi.

Sizot suvlarining kimyoviy tarkibi voxaning yuqori qismida gidrokarbonatli va gidrokarbonat-sulfatli; markaziy qismida sulfatli va sulfat-gidrokarbonatli tarkibli sizot suvlari tarqalgan. Buxoro vohasining chekka qismlarida va saxro-cho'llarida sulfat-xloridli va xlorid-sulfatli kimyoviy tarkibi sizot suvlari tarqalgan. Buxoro viloyatining gidrogeologik meliorativ sharoiti asosan yer osti sizot suvlari gidro hamda gidrokimyoviy rejimiga bog'liq bo'lib, sug'oriladigan maydonlar "Zarafshon" daryosining quyi qismida joylashgan bo'lib, murakkab hisoblanadi.

Viloyatning o'rta va quyi qismlarida sizot suvlarining yer osti harakati sekinligi va uni yer yuzasiga yaqin joylashganligi sababli meliorativ vaziyat o'ta og'ir hisoblanadi. Havo haroratining yuqori bo'lishi va issiq kunlarning ko'p bo'lishi yer yuzasiga yaqin joylashgan sizot suvlarining evapotranspiratsiyasiga ko'p sarflanishiga sabab bo'ladi. Bu esa o'z navbatida aeratsiya qismida tuz miqdorining keskin oshishiga sabab bo'ladi. Oqibatda sug'oriladigan yerlarda qayta sho'rlanish kuzatiladi.

Sizot suvlari sathining o'zgarishi bo'yicha rejim o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, yil davomida sizot suvlari sathi har-xil vaqtda turli chuqurliklarda joylashadi. Sizot suvlari sathining maksimal chuqurligi 3,0-5,0 metrni tashkil qilib, rejimning bu turi "Zarafshon" daryosining oqim bo'yicha o'ng tomoniga, viloyatning eskidan sug'orilib kelinayotgan yerlarining yuqori qismiga to'g'ri keladi. Sizot suvlarining

maksimum yuqori joylashuvi 1,0-1,5 metrni tashkil qilsa, uning minimal chuqurlik bo'yicha joylashuvi 1,5-2,0 m ni tashkil etadi. Sizot suvlari sathining o'zgarish oralig'i yil davomida 0,4-1,3 metrni tashkil qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi " 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi" PF-4947-sonli farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining suv resurslarini boshqarish va irrigatsiya sektorini rivojlantirishning 2021-2023 yillarga mo'ljalangan STRATEGIYASI" qarori.
3. Максимов Н.А. «Избранные работы по засухоустойчивости растений» // Максимов Н.А. т.1: Водный режим и засухоустойчивость растений. М.: Изд-во АН СССР, 1952. - с. 28-30.
4. Рыжов С.Н. «Принципы режима орошения сельскохозяйственных культур и гидромодульного районирования орошаемой территории» //Рыжов С.Н. Беспалов Н.Ф. // Ж.Хлопко-водство; Ташкент 1980, № 10. - с. 25-29.
5. Нерозин С.А., Стулина Г.В. Опыт применения капельного орошения хлопчатника в центральной Азии. Сб. тезисов докладов респ. конференции посвященной 70-летию САНИИРИ. Ташкент, 1995- С. 6-47.